

MUSIQA SAN'ATIDA DUTORNING TUTGAN O'RNI

Mavlonova Lobar Qahramon qizi

13-son Bolalar musiqa va san'at maktabi o'qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada musiqa san'atida dutor cholg'usining tutgan o'rni haqida so'z yuritilgan. San'at insonning qalbiga ozuqa beruvchi, uni ma'naviy jihatdan boyituvchi betakror sohadir. Musiqa esa san'atning qadimiy va ta'sirchan yo'nalishlaridan biri bo'lib, uning asosiy tarkibiy qismi-cholg'uchilik san'ati inson sivilizatsiyasi bilan birga rivojlanib kelgan san'at hisoblanadi.*

Kalit so'zlar: *Musiqa, san'at, dutor, cholg'u, inson, ma'naviyat, soha, sivilizatsiya, maqom, xalq, ritm, zarblar, kvarta, kvinta, ansambllar.*

Аннотация: *В данной статье рассмотрена роль музыкального инструмента дутор в музыкальном искусстве. Искусство-это уникальная сфера, питающая сердце человека и обогащающая его духовный мир. Музыка является одним из древних и загадочных направлений искусства, а её основной составной частью-инструментальное исполнительство-считается видом искусства, развивавшимся вместе с человеческой цивилизацией.*

Ключевые слова: *Музыка, искусство, дутор, музыкальный инструмент, человек, духовность, сфера, цивилизация, маком, народ, ритм, удары, кварта, квинта, ансамбли.*

Dutor- Markaziy Osiyo xalqlarining eng qadimiy torli cholg'ularidan biri bo'lib, o'zbek miliy musiqa san'atida alohida mavqega ega. U ikki torli cholg'u bo'lib, yumshoq, mayin va jo'shqin tovushi bilan ajralib turadi. Dutor ming yillardan buyon xalq og'zaki ijodi, marosimlar, to'ylar va an'anaviy bayramlarda ishlatilgan. U O'zbekiston hududida shakllanib, rivojlangan eng qadimiy cholg'ulardan biridir. Maqom san'atida ham dutorning o'ziga xos o'rni bor. Dutor-Markaziy Osiyo xalqlarining eng qadimiy torli cholg'ularidan biri bo'lib, uning tarixi bir necha ming yillik davrni o'z ichiga oladi.

„DU”-ikki

„TOR”-tor, ip.

Demak „dutor” so'zi „ikki torli cholg'u” degan ma'noni bildiradi.

Dutor miloddan avvalgi I-II-ming yilliklarda shakllangan. O'rta asrlarda shoh saroylarida, xon saroylarida, buyuk musiqashunoslar ansambllarida keng qo'llanilgan. Bu davrda dutor shakl jihatdan takomillashgan. Torlarning materiali o'zgargan (ot tuyog'I jilovi, ipakdan). Bezaklar, o'ymakorliklar qo'llanilgan. Dutor ko'proq xalq cholg'usi sifatida tanilgan. To'ylar, bayramlar, marosimlarda. Baxshilar, qo'shiqchilar tomonidan. Raqs kuylari va lirika kuylarida asosiy cholg'u bo'lib xizmat qilgan. Dutor O'zbek maqom san'atining ham ajralmas qismidir. U „Shashmaqom”, „Farg'ona-Toshkent yo'llari”, „Xorazm maqomlari” da: yakkanavoz (solo), jo'rnavoz (hamroh cholg'u) sifatida ishlatilgan., Maqom dutorchilik

san'atining shakllanishi va uslublari: Buxoro uslubi. Farg'ona-Toshkent uslubi. Xorazm uslubi. Tarixiy dutorlar bugungi zamonaviy dutorlardan farq qilgan. Dastlab torlari kamroq bo'lgan. Tanasi bir butun daraxtdan o'yib yasalgan. Hozir esa tanasi ko'pincha yopishtirma (qoplama) usulida yasaladi. Torlar ilgari ipak yoki asrandi tordan bo'lgan, hozir metal-plastik aralashmalardan. Qadimgi So'g'd, Baqtriya, Xorazm, Farg'ona hududlarida torli cholg'ularning ilk ko'rinishlari topilgan. Dutor „tanbur” va „rud” kabi qadimiy cholg'ular asosida rivojlangan deb hisoblanadi. „Shashmaqom”, „Farg'ona-Toshkent maqom yo'llari” da dutor asosiy cholg'ulardan biridir. Maqom ijrochilari dutorni yakkanavoz va jo'rnavoz sifatida keng ishlatadilar. Dutor chalish usullari: zarblar, ritmlar, tirnab chertish, silkish, va boshqa ijrochilik elementlari. Dutorchi ijrochilar odatda xalq qo'shiqlarini maroq bilan kuylab chalishadi. „Yor-yor”, „Lazgi”, „Tanovar” kabi milliy kuylar dutorda juda shirali jaranglaydi. O'zbek kuylaridagi ruhiy yengillik, lirika va samimiyat dutor orqali yanada yorqin ifodalanadi. Dutor va dutorchilik san'ati O'zbekistonning nomoddiy madaniy merosiga kiradi. Milliy o'zligimizni ifodalovchi ramzlardan biridir. Bugungi kunda dutor milliy ansambllar, akademik orkestrlar, hatto zamonaviy estrada kompozitsiyalarida ham qo'llanmoqda. Yoshlar orasida dutor chalishni o'rganishga qiziqish kuchli. Dutor ovozi inson ruhiyatiga sokinlik, shirin hislar, ichki muvozanat bag'ishlaydi. Milliy musiqamizning betakror timsoli sifatida bizning madaniy merosimizning ajralmas qismidir.

Xulosa

Dutor – o'zbek musiqiy madaniyatining bebaho durdonalaridan biridir. Asrlar davomida shakllanib kelgan bu cholg'u nafaqat xalqimizning musiqiy merosi, balki uning ruhiyati va hayot tarzini aks ettiradi. Bugungi kunda ham dutor o'zbek xalqining eng sevgan cholg'ularidan biri bo'lib, kelajak avlodlarga yetib borayotgan milliy qadriyat sifatida qadrlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. J. Rasultoyev. O'zbek dutor ijrochiligi. T., 1997;
2. T. Zufarov. „Soz va sozgarlik tarixi” - T-2014
3. I. Rajabov. Maqomlar. T., 2006;
4. Shavkat Rahimov „Dutor” (Musika va san'at maktablari uchun o'quv qo'llanma) T., 2004.
5. G. Muhammedova „Dutor” (Musika va san'at maktablari uchun o'quv qo'llanma).